BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SON SO‘Z TURKUMINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O‘QITISH

O‘razbayeva Jasmina Abduhakim qizi
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Niyozullayeva Shoira Jaloliddin qizi
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boslang‘ich sinflarda son so‘z turkumi darslarini interfaol usullar yordamida o‘tish usullari va yo‘llari haqida yoritib o‘tilgan.Maqolada kltirilgan metodlarning usullariga emas balki aynan son so‘z turkumi darslariga mos kelishiga ko‘proq urg‘u berilgan va shu yo‘nalishda tanlangan.

Kalit so‘zlar: son so‘z turkumi, metod, usul, dars, muammoli vaziyat, charxpalak, aqliy hujum, zig-zag.

Abstract: This article covers the methods and ways of teaching number vocabulary in elementary grades using interactive methods. The article emphasizes the suitability of number vocabulary lessons, rather than the methods of the mentioned methods. 'it is given and chosen in this direction.

Key words: numerical vocabulary, method, method, lesson, problem situation, charkhpalak, brainstorming, zig-zag.

Ona tili fanini o‘qitish qanchalik muhim va dolzarbligini 1-sinflardan boshlab o‘qitilishidan bilish mumkin. O‘zbek tilimizning so‘zlarga boyligi boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darsliklarida qo‘llangan holatidan ham ma’lum. Son so‘z turkumi ustida olib borilgan lug‘atga oid ishlar o‘quvchilarning mavzuga xos bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish bilan bir qatorda, lug‘at zahirasini oshirishga ham katta hissa qo‘shadi.

Son ustida ishlash o‘qitish dasturiga ko‘ra 1-sinfdan boshlansa ham, lekin uni o‘rganish jarayoni, metodik jihatdan qaraganda 4 bosqichga bo‘linadi.Son so‘z turkumi 1-sinflardan boshlab o‘qitilishisa ham, lekin aynan son so‘z turkumi tushunchasi bilan emas, balki narsalarning son-sanog‘ini bildirgan so‘zlar tushunchasi bilan o‘tiladi.Aynan son so‘z turkumi atamasi bilan esa, 3-sinfdan boshlab o‘rgatiladi. Son boshlang‘ich ta’limda elementar nazariy tushunchalar asosida amaliy o‘rganiladi. Lekin 1-bosqichni to‘liq ma’noda sonni amaliy o‘rganish bosqichi deb nomlaymiz. Chunki bu bosqichda umuman hech qanday nazariyasiz son so‘z turkumi bilan ishlanadi va bu 1-sinfning savod o‘rgatish va 1-sinfning 2-yarmini o‘z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun son so‘z turkumi haqidagi tushunchani to‘g‘ri shakllantirish uchun zamonaviy metodlardan foydalanishning o‘rni juda uhim sanaladi. Chunki bu yoshdagi bolalarning yosh xususiatiga qarab barcha darslarni iloji boricha interfaol metodlar va o‘yinlardan foydalanib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu mavzuni tushuntirish va o‘rgatish jarayonida hayolimga bir qancha metodlardan foydalanib darsni tashkil qilish keladi va men bulardan qaysi biri o‘qitish jarayoni uchun samaraliroq degan maqsad bilan zamonaviy interfaol metodlarning bir nechta turlari bilan tanishib, ularni o‘rganib chiqdim va ushbu maqolani yozishga harakat qildim.

Boshlang‘ich sinflarda son so‘z turkumini o‘qitishda Charxpalak, aqliy hujum, muammoli vaziyat, zig-zag, FSMU metodlarini qo‘llash to‘g‘ri keladi deb o‘yladim. FSMU metodi asosida son tushunchasini o‘quvchilar ongiga to‘g‘ri shakllantirish ustida ishlash jarayoni 3-sinf o‘quvchilarining aqliy darajasiga mos kelishi bilan muhim hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kichik guruhlar bilan ishlash ancha yaxshi samara beradi hamda o‘quvchilarni faollashtirishga ko‘mak beradi. Har bir kichik guruhlarda o‘quvchilarning yoshidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyat asosida savollar tuzib chiqiladi. .Savollardagi asosiy mazmun darslikdagi bosqichlar asodida shakllantirilgan bo‘ladi. Shuni ham yodimizda tutishimiz kerakki, boshlang‘ich ta’limda son uch yo‘nalishda o‘rganiladi:

1. Son so‘z turkumiga oid so‘zlarning talaffuzi va ma’nosi ustida ishlash.
2. Sonning grammatik shakllari ustida ishlash.
3. Sonlarning imlosi ustida ishlash.

Bu metodlar son so‘z turkumi mavzusi yuzasidan beriladigan tushunchalarning mohiyatiga, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini inobatga olgan holda tanlanishi ham muhi ahamiyatga ega hisoblanadi. Son so‘z turkumining o‘qitish jarayonidagi uch yo‘nalish bo‘yicha har bir guruhga quyidagi muammo orqali mavzu yuzasidan o‘z shaxsiy fikrlarini bayon qilishadi. Birinchi guruh son so‘z turkumiga oid so‘zlarning talaffuzi va ma’nosi ustida ishlashni qay tartibda yo‘lga qo‘yish kerakli haqida o‘z fikrlarini bayon qilishadi. Ikkinchi guruhdan sonning grammatik shakllari ustida ishlash haqidagi fikrlari so‘raladi. Uchinchi guruh esa sonlarning imlosi ustida

ishlash haqidagi fikrlarini bayon qilishadi. O‘quvchilarning bu kabi fikrlari o‘qituvchi tomonidan baholab, rag‘batlantiriladi. Ikkinchi bosqichda esa,shu metod bo‘yicha sabab aytiladi. Sabab jarayonida o‘qituvchi kichik guruhlar uchun bir xil muammo aytadi. Kishilar bir-biri bilan o‘zaro muloqot qilganida soating nechchi bo‘ldi? deb so‘rashadi. Soatdagi raqamlarni so‘raganimizda biz aynan shu so‘roqni beramiz.

Son tushunchani o‘zlashtirishga ko‘maklashadigan asosiy metodik shartlar o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni yangi bilim olishlari uchun qiziqtirish hisoblanadi.O‘qituvchi son haqidagi tushunchalarni shakllantirish jarayonini nazoratga olishi, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish uchun zamonaviy interfaol metodlar nima ekanligini bilib olishlari va jarayonning xususiyatlarini, son tushunchasini o‘rganish va o‘rgatish qaysi hollarda va qay yo‘sinda tashkil qilingan darslarda boshqalarga ko‘ra natijaliroq bo‘lishini sinab ko‘rib o‘z faoliyati uchun bilib olishi kerak.

Xulosa o‘rnida Sheroziyning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tsak bo‘ladi: ”Agar inson ilm nuri bilan o‘z yo‘lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko‘chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma’rifat bilan baquvvat bo‘ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo‘ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko‘rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san’atdir.Dunyoda qanday yovuzlik sodir bo‘lgan bo‘lsa,ularning hammasi nodonlik orqali kelib chiqqan. Eng zo‘r halokat nodonlik, insoniylikni bitiruvchi ham nodonlikdur.Yaxshi tahsil ko‘rgan va ilm nuri bilan xulqni yaxshilagan ayol har yerda izzat topadi. Ilm-ayol uchun ziynat. Aqlini nodonlikdan qutqargan har bir ayol nomus, izzat ayollik qadrini tushunib yetadi. Bunday ayol hech bir ishda adashmaydi. Ilmsiz ayol esa,bola tarbiyalashda turli xatolarga yo‘l qo‘yadi”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimova K. va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: “Nosir” nashriyoti. 2009y. B 261.

2. G‘afforova T. G‘ulomova X. 1-sinfda ona tili darslari. Toshkent: Taffakur, 2007y.

3. G‘ulomova X. Yo‘ldosheva Sh. Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004y

4. G‘ulomov A. Qodirov B. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1998y.